

BLENDED LEARNING (ARALASH TA'LIM) MODELİ ORQALI AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH.

Abdullayeva Saodat Mengbayevna

Annotatsiya. Mazkur maqolada Blended learning (aralash ta'lim) modelining o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishdagi nazariy asoslari yoritiladi. Aralash ta'lim modeli an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari va raqamli ta'lim vositalarini uyg'unlashtirib, o'quvchilarda mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, LMS tizimlari, elektron resurslar, interaktiv topshiriqlar va hamkorlikdagi faoliyat orqali o'quvchilarning axborot savodxonligi va ijodiy fikrlash qobiliyatlari mustahkamlanishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Blended learning (aralash ta'lim), axborot kompetensiyasi, raqamli savodxonlik, mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash, kognitiv rivojlanish.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi va global bilimlar almashinuvi sharoitida o'quvchilarni mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va undan oqilona foydalanishga o'rgatish ta'limning asosiy vazifasiga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Blended learning (aralash ta'lim) modeli ta'lim samaradorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy asos sifatida qaraladi. Ushbu model an'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini raqamli ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarga moslashuvchanlik, interaktivlik va mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratadi. Natijada, o'quvchilar axborot manbalarini tanqidiy baholash, ilmiy izlanish olib borish va o'z bilimlarini ijodiy qo'llash ko'nikmalarini egallaydilar.

Nazariy jihatdan, Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari va Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi blended learning modelining samaradorligini asoslab beradi. Konstruktivistik yondashuv esa o‘quvchilarning bilimni faol o‘zlashtirishini va axborotni mustaqil qayta ishlashini ta’minlaydi. Shu bois, aralash ta’lim modeli nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarni zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Asosiy qism. Oliy ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish ko‘lamini kengaytirish, bu yo‘nalishda ilg‘or pedagogik tajribalarni tatbiq etish, har bir fan bo‘yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish; darslik, o‘quv qo‘llanma, dastur, ma’ruza matnlarini tayyorlash, ilmiy – metodik ishlarda, o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni rivojlantirish, ularni axborot vositalari bilan ta’minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarga bog‘lash eng muhim vazifa hisoblanadi.

Ta’lim texnologiyasining yaratuvchisi – pedagog nazariy bilim, amaliy tajriba, ilg‘or ta’lim metodlari va usullarini qo‘llash mahoratini egallagan bo‘lsa, ta’lim sifati bilan samaradorligi kafolatlanadi. Har qanday o‘qitish texnologiyasi muayyan didaktik maqsadga yo‘naltirilar ekan, uning asosida aniq pedagogik g‘oya yotadi. Pedagogik texnologiyalar mohiyatini o‘quvchi shaxsini xilma – xil jihatlardan rivojlantirish g‘oyasi tashkil etgani uchun xilma – xil mavzular bo‘yicha ta’lim texnologiyalari asosida ham ayni shu g‘oya harakat qiladi. Biroq bu g‘oyani qanday shaklda, qaysi usullar yordamida va qanday qilib amalga oshirish kerak? – degan savolga har safar yangi, original javob topishga harakat qilinadi. Ana shu “javob”dan texnologiyani harakatga keltiruvchi pedagogik g‘oya mohiyati tushuniladi.

Uzluksiz ta’lim bosqichlarida ta’lim texnologiyalari samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. “Keystadi”, “Assesment”, “Baliq skeleti”, “Blits – o‘yin”, “SWOT-tahlil”, “Grafik organayzrlar” metodlari, “CHarxpalak” va “FSMU” texnologiyalari kabi o‘nlab

zamonaviy pedagogik texnologiyalar nomi barchaga tushunarli va tanish. SHu bilan birgalikda ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida jahon tajribalaridan kelib chiqib Blended learning (Aralash ta'lim), Flipped Classroom (O'rgatish orqali o'rganish), Project-Based learning (PBL, Loyiha asosida o'rganish), Gamification (O'yinlashtirish texnologiyasi), STEAM/STEM Education, Adaptive learning (Moslashuvchan ta'lim), Collaborative learning (Hamkorlikda o'rganish), Digital Tools Integration (Raqamli vositalardan foydalanish), Microlearning (Qisqa ta'lim bloklari), Problem-Based learning (Muammo asosida o'rganish), Experience exchange (tajriba almashish), Technical consulting (texnik maslahat berish), Rotation (Aylanma) kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash toboro ommalashmoqda. Ta'lim amaliyotida pedagog ulardan foydalanishni rejalashtirar ekan didaktik maqsadni asos qilib oladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha qiziqarli kuzatishlar olib borgan Anatoliy Gin so'zlari bilan aytganda: "Bunday texnologiyalar talabalarni yagona fikr doirasidan ozod qilib, tafakkur osmonida erkin parvoz qilishlariga imkon yaratadi". Bunday sharoit yaratishda olim "ochiq topshiriqlardan foydalanishni maslahat beradi. Bunday usulda talabalar kreativ (ijodiy) tafakkur yuritishga, muammo yechimiga turli yo'llar, izlanishlar orqali yetib borishga yo'llanadi. "Ochiq topshiriqlar"ning esa yechimi ko'p bo'ladi.

Darslardagi interaktiv faoliyat o'zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan dialogli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi. Interfaol usul bitta so'zga chiquvchining, shuningdek bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishliga yo'l qo'ymaydi. Ayniqsa "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda ushbu usullarni to'g'ri tanlay bilish va samarali qo'llash talabalarda ushbu fan haqida bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishda yaxshi natijalar beradi. Ushbu usullarni qo'llagan holda dars jarayonini qiziqarli, noan'anaviy tarzda tashkil etish mumkin.

Interfaol o'qitishni tashkilotchilari uchun, sof o'quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir: guruhdagi talabalarning o'zaro muloqatlari

jarayonida boshqalarning qadriyatlarini tushinib yetish; boshqalar bilan o'zaro muloqatda bo'lish va ularning yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi; talabalarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

Interfaol usullar bo'yicha o'qitish tashkil etilganda e'tibor berilishi kerak bo'lgan yana bir holat, bu vazifaning mazmuni masalasidir. Vazifaning mazmuni o'qitishning an'anaviy shakllariga qaraganda boshqacharoq xarakterga ega bo'lishi lozim. Masalan, guruhga darslikdagi ma'lum bir paragrafni konspektini olish vazifa sifatida berish maqsadga muvofiq emas, chunki har bir talaba bu ishni o'zi, mustaqil bajarishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, muammoni nostandart qo'yilishigina, talabalarni bir – biridan yordam olishga, boshqalarning ham fikrini bilishga, natijada esa, guruhning umumiy fikrini shakllantirishga undaydi. Masalan, dasturlashga oid masala yechilganda, uni kichik masalalarga bo'lish mumkin, talabalarni ham kichik guruhlariga bo'lish va har biriga kichik masalani yechishni va dasturini tuzishni tavsiya etish mumkin. Dars oxirida guruhlarning yechimlari asosida asosiy masala yechishni tashkil qilish lozim. Buning natijasida bitta dars davomida murakkab masalani yechish va unga ko'proq talabalarni jalb qilish mumkin bo'ladi.

Blended learning (aralash ta'lim) modeli axborot kompetensiyasini rivojlantirishda eng samarali yondashuvlardan biri bo'lib, u an'anaviy yuzma-yuz ta'limni raqamli resurslar va onlayn platformalar bilan uyg'unlashtiradi. Bu model o'quvchilarda mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va raqamli axborotdan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Blended learning (aralash ta'lim) modelining mohiyati: Blended learning – bu an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari va onlayn ta'lim vositalarini birlashtirgan ta'lim modeli.

Blended learning (aralash ta'lim) modeli: o'quvchilarga moslashuvchanlik beradi, interaktiv metodlar orqali bilimlarni mustahkamlaydi, raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Axborot kompetensiyasi – bu o'quvchining axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish qobiliyati. Zamonaviy ta'limda bu ko'nikma mustaqil o'rganish, ilmiy izlanish va hayotiy muammolarni hal qilish uchun juda ham zarur.

Blended learning (aralash ta'lim) modeli orqali axborot kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari

1-jadval

Asosiy yo'nalish	Amaliy misol	Rivojlanadigan kompetensiya
Onlayn resurslardan foydalanish	Elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar, videodarslar	Axborotni izlash va tanlash
Interaktiv topshiriqlar	Quiz, forum, muhokama platformalari	Tanqidiy fikrlash va baholash
LMS (Learning Management System)	Moodle, Google Classroom	Axborotni tizimlashtirish va boshqarish
Yuzma-yuz muhokama	Seminar, guruh ishlari	Axborotni taqdim etish va muloqot qilish
Mustaqil loyiha ishlari	Tadqiqot, prezentatsiya tayyorlash	Axborotni yaratish va ijodiy qo'llash

Blended learning modeli axborot kompetensiyasini rivojlantirish uchun nazariy va amaliy jihatdan qulay platformadir. U talabalarda mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, aralash ta'limni qo'llash nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki talabalarni zamonaviy axborot jamiyatiga tayyorlaydi.

Xulosa. Blended learning (aralash ta'lim) modeli o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu model an'anaviy ta'limning kuchli jihatlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarda mustaqil izlanish,

tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va undan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shunday qilib, aralash ta'lim modeli nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarni zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Bu yondashuv ta'limda innovatsion metodlarni joriy etish, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularni global bilimlar maydonida faol ishtirok etishga undashda muhim nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (2006). The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisco: Pfeiffer Publishing.
2. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco: Jossey-Bass.
3. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. New York: Basic Books.
4. Vigotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Graham, C. R. (2013). Emerging practice and research in blended learning. In M. G. Moore (Ed.), Handbook of Distance Education (pp. 333–350). New York: Routledge.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2022). Raqamli ta'lim strategiyasi va innovatsion metodlar. Toshkent.
7. Abdullayeva S.M. "Muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan usullar". Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025 4-son, 495-497- bet
8. Abdullayeva S.M. Bolutli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni. Pedagogika, 2025 4-son
9. Abdullayeva S.M. Ta'lim texnologiyasini yangilash - zamon talabi. Pedagogika, 2023 4-son